Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 11 2026

Advokat maqomini to'xtatib turish va qayta tiklash: asoslari, tartibi va takomillashtirish istiqbollari

Qulmurodov Urol Baxriddin o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti “Advokatiklik faoliyati” yo‘nalishi magistranti
urolbek1620@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida advokat maqomini to'xtatib turish va qayta tiklash asoslari hamda tartibi tahlil qilinadi. Milliy qonunchilik Rossiya, Gruziya, Belarus va Qozog'iston qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganilgan. Tahlil natijasida "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 13¹-moddasidagi ayrim normalarning aniq yoxud to'liq emasligi aniqlandi. Moddaning ikkinchi va to'rtinchi bandlarini aniqlashtirish, shuningdek yangi uchinchi qism kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: advokat maqomi, advokatura, maqomni to'xtatib turish, maqomni tiklash, malaka komissiyasi, qiyosiy huquq, yuridik maslahatchi.

Kirish

So'nggi yillarda sud-huquq sohasidagi islohotlar advokatura institutini rivojlantirishga ham ta'sir qildi. Bu sohani qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PF-5441-son Farmoni bilan advokatlik litsenziyasini olish uchun majburiy stajirovka muddatini olti oydan uch oyga qisqartirIldi. Davlat organlari yuridik xizmati xodimlari hamda kamida uch yil sudya, tergovchi yoki prokuror bo'lib ishlagan shaxslar stajirovkadan ozod qilindi. Malaka imtihonini takroran topshirish muddati bir yildan olti oygacha qisqartirildi. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonning (2023-yil 12-sentyabrdan kuchga kirgan) 88-bandida advokatura salohiyatini oshirish[1]

[1] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

vazifasi qo'yilgan. Unda advokaturani o'zini o'zi boshqarish tizimiga o'tkazish, advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko'paytirish va elektron hujjat almashinuvini kamida 50 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga advokat maqomining huquqiy mohiyati va uni to'xtatib turish mexanizmi yetarlicha o'rganilmagan. Qonunchilikdagi ayrim normalar amaliyotda noaniqlik tug'diradi.

Tadqiqot maqsadi — advokat maqomini to'xtatib turish va qayta tiklash asoslari hamda tartibini tahlil qilish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqot vazifalari:

1. "Advokat maqomi" va uni to'xtatib turish tushunchalarini aniqlash.
2. Milliy qonunchilikdagi asoslar va tartibni o'rganish.
3. Xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish.
4. Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

- **Huquqiy-tahliliy usul:** "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-son Qonun, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-I-son Qonun, Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Oila va Jinoyat kodekslari hamda Adliya vazirligining tegishli nizomi o'rganildi.
- **Qiyosiy-huquqiy usul:** Rossiya (2002-yil 31-maydagi 63-FZ-son Federal qonun), Gruziya (2004-yil 29-sentyabrdagi 970-son qonun), Belarus (2012-yil 30-dekabrdagi 334-3-son qonun) va Qozog'iston (2021-yil 1-iyuldagi 176-son qonun) normalari milliy qonunchilik bilan solishtirildi.
- **Doktrinal tahlil:** A.D. Boykova, M.B. Smolenskiy va U.A. Zokirova kabi mualliflarning ta'riflari o'rganildi.
- **Mantiqiy va tizimli usul:** normalar o'rtasidagi ziddiyat va bo'shliqlarni aniqlash hamda xulosalar chiqarishda qo'llandi.
- **Lingvistik usul:** "maqom" tushunchasi izohiga murojaat qilindi.

Natijalar

Advokat maqomi tushunchasi

"Maqom" so'zi martaba va mavqe ma'nolarida ishlatiladi. Demak, advokat maqomi advokatning mavqeyi, martabasidir. Rossiyalik olimlar bu tushunchani quyidagicha ta'riflaydilar:

- A.D. Boykova: advokat maqomi — shaxsning qonunchilikda belgilangan va kafolatlangan, yuridik faoliyat uchun zarur va yetarli huquq va majburiyatlari bilan tavsiflanadigan huquqiy holati. U "advokat maqomi" tushunchasi huquqiy hujjatlarda birinchi marta 2002-yildagi 63-FZ-son qonun bilan paydo bo'lganini ham qayd etadi.[2]
- M.B. Smolenskiy: advokatning jamiyatdagi huquqiy mavqei. Bunga maqomga da'vogarga qo'yiladigan talablar, maqomni olish tartibi, vakolatlar va daxlsizlik hamda mustaqillik kafolatlari kiradi.[3]

Ushbu qarashlarni umumlashtirib, **advokat maqomi** deganda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun qonunchilikda belgilangan talablarga javob beradigan va malakali yuridik yordam ko'rsata oladigan shaxsning mavqeyi tushuniladi. Bunday shaxs munosib xulq-atvorga ega bo'lishi, kasbiga vijdonan yondashishi va manfaatlarni himoya qilishda fidoyi bo'lishi kerak.

Maqomni to'xtatib turish — advokatni advokatlik vazifasini bajarish va advokatlar uchun nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish imkoniyatidan vaqtincha mahrum qilish.[4]

Milliy qonunchilikdagi asoslar

"Advokatura to'g'risida"gi qonunning 13^1-moddasiga ko'ra maqom quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:

[2] Сущность и правовое содержание статуса адвоката. А.Д. БОЙКОВ.
[3] «Правовой статус адвоката (на примере России и Японии): сравнительно-правовое исследование». Выпускная квалификационная работа (Магистерская диссертация). Гришина Алена Владимировна
[4] Ўзбекистон Республикасида адвокат мақоми. ўқув қўлланма. ТДЮУ. Тошкент-2017. У.А.Закирова.

№	Asos	To'xtatib turish muddati
1	Advokatlik bilan birga olib borib bo'lmaydigan doimiy lavozimga saylanish yoki tayinlanish	Ish davriga
2	Ta'lim muassasalariga, shu jumladan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga o'qishga kirish	O'qish davriga, ko'pi bilan 3 yil
3	Homiladorlik va tug'ish, 3 yoshgacha bolani parvarish qilish ta'tili	Ta'til vaqtiga
4	Advokat yoki uning yaqin qarindoshining og'ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (tibbiy xulosa bilan)	Sog'ayguncha, ko'pi bilan 1 yil
5	Bedarak yo'qolgan deb topilish	Sud qarori bekor qilinguncha
6	Harbiy xizmatga chaqirilish	Xizmat davriga
7	Sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishi (agar litsenziyani tugatish uchun asos bo'lmasa)	Choralar bekor qilinguncha yoki o'zgartirilguncha
8	Advokatlik litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilishi	Litsenziya to'xtatilgan davrga
9	Advokatlik tuzilmasi tugatilishi yoki advokatning undan chiqishi	Uch oydan oshmagan muddatda yangi tuzilma tashkil etilgunga yoki mavjudiga kirgunga qadar

Bundan tashqari, advokatni advokatlik faoliyatidan bir oydan ortiq ozod qilishni nazarda tutuvchi boshqa asoslar mavjud bo'lsa, maqom uning arizasi bilan shu davrga to'xtatib turilishi mumkin. Maqom o'z arizasiga ko'ra to'xtatilganda shaxs yuridik maslahatchi sifatida ishlashi mumkin.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili Mehnat kodeksining 404-moddasiga ko'ra tug'ruqqacha 70 va tug'ruqdan keyin 56 kalendar kun (murakkab tug'ishda yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilganda 70 kun) beriladi, jami 126 yoki 140 kun. 405-modda bo'yicha ayol xohlasa, bola ikki yoshga to'lguncha parvarish ta'tili ham beriladi.

To'xtatib turish va tiklash tartibi

Qaror advokat advokatlik guvohnomasini olgan hududdagi **malaka komissiyasi** tomonidan qabul qilinadi.[5] Adliya organi qaror chiqarilgandan keyin uch kun ichida malaka komissiyasi orqali guvohnomani olib qo'yadi va Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga xabar beradi. Advokat bedarak yo'qolgan bo'lsa, guvohnoma olib qo'yilmaydi, chunki buning iloji yo'q. Maqom to'xtatilgach, advokatning Advokatlar palatasiga a'zoligi ham to'xtatiladi va qonunda nazarda tutilgan kafolatlar amal qilmaydi. Istisnolar quyidagilar: advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazari uchun taqdimnoma kiritish yoki xususiy ajrim chiqarish mumkin emasligi; yuridik yordam ko'rsatgani uchun javobgarlikka tortish yoki shu bilan qo'rqitish mumkin emasligi; qamoq yoki uy qamog'i ehtiyot chorasi faqat qonunda belgilangan prokurorlarning iltimosnomasi bilan tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llanishi. Tiklash asoslari bartaraf etilgach amalga oshadi. Shaxs Nizomda ko'rsatilgan muddat tugashiga kamida o'n kun qolganda malaka komissiyasiga ariza bilan murojaat qiladi va asoslar tugaganini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiladi. Komissiya arizani belgilangan muddatda ko'rib chiqadi. Tiklash haqidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay adliya organiga yuboriladi.

Qiyosiy tahlil

Davlat	Asoslar soni	Asosiy xususiyatlar

[5] O‘zbekiston respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida.

Davlat	Asoslar soni	Asosiy xususiyatlar
Rossiya	5	Asoslar milliy qonunchilikdagi bilan asosan bir xil[6]
Gruziya	3	Advokatning arizasi; advokatlik huquqidan 6 oydan 3 yilgacha mahrum qilish; davlat muassasasida "manfaatlar to'qnashuvi"ga olib keladigan lavozim[7]
Belarus	5	Davlat organida doimiy ishlash; harbiy xizmat; 3 yoshgacha bolani parvarish; muqobil xizmatga yuborish; litsenziyani to'xtatish[8]
Qozog'iston	4	Harbiy xizmat; deputatlik vakolatlari; davlat xizmati; advokatning o'z arizasi[9]

Qiyosiy tahlildan quyidagilar kelib chiqadi:

1. Belarusdagi muqobil xizmat asosi O'zbekiston qonunchiligida nazarda tutilmagan.

2. Qozog'istonda davlat xizmatida bo'lish litsenziyani to'xtatish asosi sifatida alohida belgilangan.

3. Matnda keltirilgan yana bir xorijiy tajribada maqom shaxsiy ariza bilan kengash qarori asosida bir yildan kam bo'lmagan va o'n yildan oshmagan muddatga to'xtatilib, so'ng tiklanadi. Kengashning to'xtatib turish yoki yangilashni rad etish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. O'zbekiston qonunchiligida bunday imkoniyat ko'zda tutilmagan.

Aniqlangan muammolar

[6] Федеральный закон «Об адвокатской деятельности и адвокатуре в Российской Федерации».
[7] საქართველოს კანონი ადვოკატთა შესახებ.
[8] 30 декабря 2011 г. № 334-З Об адвокатуре и адвокатской деятельности в Республике Беларусь.
[9] Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI «Об адвокатской деятельности и юридической.

Ta'lim muddati. Qonun maqomni o'qish davriga, ko'pi bilan **uch yilga** to'xtatishga ruxsat beradi. Ammo "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga ko'ra bakalavriat kamida uch yil davom etadi va amalda odatda to'rt yil. To'rt yillik o'qishda qolgan bir yil uchun tartib hech bir hujjatda belgilanmagan.

"Yaqin qarindosh" tushunchasining noaniqligi. Oila kodeksi (57-modda) to'g'ri shajara (bobo, ota-ona, farzand) yon shajaradan yaqinroq ekanini belgilaydi. Jinoyat kodeksi esa yaqin qarindoshlar doirasini ancha kengroq (aka-uka, opa-singillar, er-xotin, uning ota-onasi va boshqalar) belgilaydi. Qonun 13^1-moddaning to'rtinchi bandida qaysi ta'rif qo'llanishini ko'rsatmaydi.

1. Faoliyatning to'liq taqiqlanishi. Maqom to'xtatilganda advokat advokatlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydi, ammo malakasi saqlanib qoladi. To'liq cheklov uning malakasi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Muhokama

Birinchidan, o'qish muddati bo'yicha norma aniq emas. Bakalavriatda to'rt yil o'qiyotgan advokat uchun maqom faqat uch yilga to'xtatiladi. Oxirgi yil uchun na to'xtatish, na maqomni qayta tiklab o'qishni davom ettirish tartibi belgilangan. Shu sababli norma quyidagicha o'zgartirilishi taklif etiladi: "ta'lim muassasalariga, shu jumladan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslariga o'qishga kirganda — o'qish davriga, biroq ko'pi bilan to'rt yilga." Sirtqi ta'limda o'qish besh yil davom etsa, to'rt yildan keyin oxirgi yilni advokat maqomi tiklangan holda o'tashi mumkin.

Ikkinchidan, "yaqin qarindosh" tushunchasi turli kodekslarda turlicha talqin qilinadi. Bu amaliyotda turlicha qo'llanishga yo'l ochadi. Bandni quyidagicha yozish taklif etiladi: "advokat yoki uning Oila kodeksining 57-moddasida belgilangan to'g'ri shajara bo'yicha yaqin qarindoshi og'ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli tibbiy xulosa taqdim etilganda — sog'ayguncha, biroq ko'pi bilan bir yilga." Bu doirani qonuniy asosda cheklaydi va suiiste'mol qilish xavfini kamaytiradi.

Uchinchidan, advokat maqomi to'xtatilgan paytda uning malakasi saqlanadi, lekin faoliyati to'liq cheklanadi. Bu kasbiy ko'nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun 13¹-moddaga uchinchi qism sifatida quyidagi norma kiritish taklif etiladi: "Advokat maqomi mazkur moddaning birinchi qismi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha to'xtatib turilgan davrda uning yuridik xizmat ko'rsatish faoliyati cheklanmaydi va qonun himoyasida bo'ladi. Bundan uning sud, tergov yoki surishtiruvda himoyachi sifatida ishtirok etishi mustasno." Bu yechim o'qish, ta'til va kasallik kabi o'zi tanlamagan, vaqtinchalik asoslar bo'yicha maqomi to'xtatilgan advokatlarning kasbiy faolligini saqlab qoladi. Shu bilan birga himoyachilik kabi maqomga bog'liq vakolatlar cheklanadi.

To'rtinchidan, xorijiy tajribadan quyidagilarni o'rganish maqsadga muvofiq:

- to'xtatib turish yoki tiklashni rad etish qarori ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini nazarda tutish;
- muqobil xizmatni (Belarus) va davlat xizmatini (Qozog'iston) alohida asos sifatida ko'rib chiqish.

Tadqiqotning cheklovi shuki, u asosan normativ va qiyosiy-huquqiy tahlilga tayanadi. Amaliyot statistikasi (to'xtatilgan maqomlar soni, ular bo'yicha bahslar) tahlil qilinmagan. Keyingi tadqiqotlarda bu ma'lumotlarni jalb etish tavsiya etiladi.

Xulosa

O'zbekistonda advokatura va advokatlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, advokat maqomini to'xtatib turish institutida quyidagi takomillashtirish ehtiyojlari mavjud:

1. "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 13¹-moddasi birinchi qismi 2-bandidagi "uch yil" muddatini "to'rt yil"ga o'zgartirish.

2. "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 13¹-moddasi 4-bandida "yaqin qarindosh"ni Oila kodeksining 57-moddasi bo'yicha to'g'ri shajara bilan cheklash.

3. "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 13¹-moddasiga yangi uchinchi qism kiritib, ayrim asoslar bo'yicha maqomi to'xtatilgan advokatning yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini qonun himoyasiga olish.

4. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, maqomni to'xtatish yoki tiklashni rad etish qarori ustidan sudga shikoyat qilish tartibini qonunda belgilash.

Bu takliflar advokatlar huquqlarining himoyasini kuchaytiradi va advokatura institutining mustaqilligi hamda malakali yuridik yordam sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 349-I-son, 1996-yil 27-dekabr.
2. "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun, 721-I-son, 1998-yil 25-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PF-5441-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat, Oila va Jinoyat kodekslari; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
6. Rossiya Federatsiyasining 2002-yil 31-maydagi 63-FZ-son "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni.
7. Gruziyaning 2004-yil 29-sentyabrdagi 970-son, Belarusning 2012-yil 30-dekabrdagi 334-3-son va Qozog'istonning 2021-yil 1-iyuldagi 176-son qonunlari.
8. Zokirova U.A. O'quv qo'llanma. Toshkent davlat yuridik universiteti.
9. Boykova A.D. "Advokat maqomi" tushunchasi bo'yicha ishlari.
10. Smolenskiy M.B. "Rossiyada advokatlik faoliyati va advokatura kursi" darsligi.